

Date: 15th June-2026

KICHIK BIZNESNI KREDITLASHDA IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH

Aliyev Yashnarjon Egamberdievich

iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik” kafedrası,

O‘zbekiston, Toshkent shahri

E-mail: ya.aliyev@tsue.uz

Annotasiya: Ushbu maqolada yashil iqtisodiyot sharoitida mamlakatimizda kichik biznesni kreditlash orqali aholi bandligini oshirish, milliy iqtisodiy xavfsizlik barqarorligini ta'minlash ijtimoiy xavfsizlikni kafolatlovchi asosiy moliyaviy instrumentlaridan biri ekanligi to'g'risidagi nazariy masalalar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Tadbirkorlik, kichik biznes, bozor kon'yunkturasi, ishsizlik darajasi, ijtimoiy keskinlik, iqtisodiy xavfsizlik, moliyaviy instrument, kredit resurslari, bank kreditlari, zanjirli bandlik, ijtimoiy destabilizatsiya, moliyaviy dastak, kreditlash mexanizmlari, qo'shilgan qiymat.

Kirish

Bugungi kunda milliy iqtisodiy xavfsizlik faqatgina tashqi tahdidlardan himoyalaniş emas, balki ichki ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash jarayonlarini o'z ichiga olmoqda. Bu jarayonlarni eng muhim bo'g'inlaridan biri aholi bandligi va ularni iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash hisoblanadi. Iqtisodiyotda ishsizlik darajasining yuqoriligi ijtimoiy keskinlikni oshiradi, shu sababli, kichik biznesni banklar orqali kreditlash jamiyatda aholini iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning eng samarali instrumentlaridan biri hisoblanadi.

Ushbu mavzu bo'yicha bir qator xorijiy olimlarni o'zlarini ilmiy tadqiqot natijasida yaratilgan risolalaridagi ilmiy qarashlarini ko'rib chiqamiz. Masalan, Nobel mukofati laureati Jozef Stiglis ta'kidlaganidek, “kichik biznes uchun kredit resurslarining cheklanishi nafaqat iqtisodiy o'sishga, balki mehnat bozoridagi barqarorlikka ham salbiy ta'sir ko'rsatadi, bu esa iqtisodiy xavfsizlikning ijtimoiy indikatorlarini yomonlashtiradi”[1]. Bizning fikrimizcha ham tadbirkorlik uchun banklar tomonidan kredit resurslarini cheklanishi yangi ish o'rinlarini yaratilishiga hamda aholini iqtisodiy xavfsizligiga o'zining salbiy ta'sirni bevosita ko'rsatadi.

Nobel mukofati laureati Muhammad Yunusning konsepsiyasi shuni anglatadiki “aholining tadbirkorlik faoliyatini mikrokreditlash davlatning ijtimoiy xavfsizligini ta'minlashning eng samarali institutsional echimidir”[2]. Bizning fikrimizcha, bank kreditlari jamiyatning eng quyi qatlamlarida tadbirkorlikni uyg'otish orqali milliy barqarorlikka erishishga olib keladigan asosiy jarayonlardan biri hisoblanadi.

V.K.Senchagov tasnifiga ko'ra, “kichik biznesni kreditlash orqali bandlikni ta'minlash iqtisodiyotning moslashuvchanligini oshiradi va uni kritik tahdidlardan himoya



Date: 15th June-2026

qiladi”[3]. Bizning fikrimizcha ham kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi past bo‘lishini mamlakat iqtisodiy xavfsizligiga strategik tahdid bo‘lib, kreditlash tizimini bu tahdidni bartaraf etuvchi asosiy omildan biri hisoblanadi.

T.E.Sultonov qarashlariga ko‘ra “Kichik biznesga yo‘naltirilgan bank kreditlari iqtisodiyotda zanjirli bandlik effektini beradi. Bir tadbirkorga berilgan investitsion kredit kamida 3-5 ta yangi ish o‘rni yaratish bilan birga, qo‘shimcha xizmat ko‘rsatish sohalarini ham faollashtiradi”[4]. Bizning fikrimizcha, bank kreditlari hududiy bandlikni oshirish orqali milliy iqtisodiyotning ichki barqarorligini mustahkamlanishiga olib keladi.

A.V.Vahobov ta’kidlashicha, “Iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashda bandlik darajasi shunday strategik ko‘rsatkichki, uning me’yordan pasayishi jamiyatda ijtimoiy destabilizatsiyani keltirib chiqaradi. Kichik biznesni bank kreditlari orqali rag‘batlantirish bu ijtimoiy xavfsizlikni kafolatlovchi asosiy moliyaviy dastakdir”[5]. Bizning fikrimizcha, kichik biznesni kreditlash orqali aholining real daromadlarini oshirishga hamda mamlakatning tashqi qarzga qaramligini kamayishiga olib keluvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Metodologiya

Ushbu maqolani tayyorlash jarayonida analiz va sintez, induksiya va deduksiya, abstrakt-mantiqiy tahlil kabi statistik va iqtisodiy tahlil usullaridan foydalanilgan.

Natijalari

Ilmiy maqola natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, ilmiy maqolani tayyorlash natijasida iqtisodchi olimlarni kichik biznesni banklar tomonidan samarali kreditlash orqali aholi bandligini ta’minlash bo‘yicha ilmiy-amaliy qarashlarini qiyosiy va tanqidiy tahlil qilish, tadqiqot jarayonida qo‘llanilgan metodologik yondashuv va usullarning asoslanganligi, axborot bazasining rasmiy manbalardan olinganligi, shuningdek taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishda ilmiy-nazariy manbaalardan keng foydalanganligi bilan izohlanadi.

Tahlil

Bugungi jadal o‘zgarayotgan global va mahalliy bozor sharoitida kichik biznes korxonalari turli ichki va tashqi tahdidlarga eng zaif bo‘g‘in hisoblanadi. Iqtisodiy xavfsizlik bu korxonaning mavjud resurs va imkoniyatlaridan samarali foydalanib, turli xavf-xatarlarning oldini olish va barqaror foyda olish qobiliyatidir.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda kichik biznesda iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar natijasida tadbirkorlik muhiti tubdan yaxshilashga erishilmoqda. Jumladan:

Prezident farmonlari bilan tadbirkorlik sub’ektlarini tekshirishga qo‘yilgan moratoriylar biznesning erkin nafas olishiga xizmat qilmoqda;

xufiyona iqtisodiyot ulushining kamayishi tadbirkorlar uchun xavfsizlik va yangi imkoniyatlar eshigini ochmoqda;

yangi tahrirdagi “To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida”gi Qonun moliyaviy qiyinchilikka tushgan korxonalarni bankrot qilish emas, balki ularni sog‘lomlashtirish (reabilitatsiya) mexanizmi kuchaytirildi.



Date: 15th June-2026

O'zbekiston sharoitida har yili mehnat bozoriga 600-700 ming nafar yoshlar kirib kelmoqda. Ularni ish bilan ta'minlashning asosiy omillaridan biri kichik biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash orqali "o'zini-o'zi band qilish" tizimini rivojlantirish hisoblanadi. Bu esa mamlakatda demografik bosim va mehnat bozorini muvozanatini saqlashga xizmat qiladi.

2023 yildan boshlab, mamlakatimizda kredit berish tizimi mahallabay ishlash instituti bilan jipslashdi. Hokim yordamchilari tavsiyasi bilan berilayotgan kreditlar "manzillilik" tamoyilini kuchaytirdi. Asosiy e'tibor kichik va o'rta biznesga o'tishga qaratiladi. Sababi, iqtisodiy xavfsizlik uchun faqat o'zini-o'zi boqish emas, balki aholining boshqa qatlamini ham ish bilan ta'minlay oladigan o'rta qatlamni kengaytirish muhim.

O'zbekistonda 2023-2025 yillarda kichik biznesni kreditlash va bandlik ko'rsatkichlari

Ky'pcatkichlar nomi	2023 yil	2024 yil	2025 yil
Ajratilgan kreditlar hajmi (trln so'm)	51.4	62.0	70.0
Oilaviy tadbirkorlik dasturlariga (trln so'm)	13.0	11.5	12.0
Yaratilgan yangi ish o'rinlari (ming kishi)	480.5	550.0	600.0
Kichik biznesning YaIMdagi ulushi (%)	51.2	52.5	53.5
O'zini o'zi band qilganlar soni (mln kishi)	2.1	2.5	3.0

Kreditlarning 40% dan ortig'i xizmat ko'rsatish sohasiga yo'naltirilaëtgani ichki bozorni iste'mol tovarlari bilan to'ldirib, inflyacion xavflarni jilovlashga ërdam beradi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiëtning asosiy "drayveri" sifatida ko'rishimiz mumkin. Sababi, kam resurslar bilan ko'p ish o'rinlari yaratish xususiyatiga ëga bo'lib, bank kreditlari ësa bu sohani rivojlanishiga olib keladigan asosiy omillardan biridir.

Xulosa va takliflar

Hozirda kichik biznesni zamonaviy kreditlash mexanizmlaridan (mikrokreditlar, imtiëzli kreditlar) kengroq foydalanilsa tadbirkorlarga yangi texnologiyalarni sotib olish imkonini beradi, bu ësa innovatsion va texnologik xavfsizlikni ta'minlashga hamda ishlab chiqarilgan mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirishga olib keladi. Bu orqali kichik biznes korxonalarini banklar tomonidan kreditlash jaraënlarini iqtisodiy xavfsizlikka ta'sir ëtish mexanizmida ijobiy o'zgarishlar yuzaga keladi:

- banklar tomonidan ajratilgan bank kredit resurslari yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish va mavjudlarini kengaytirishga xizmat qiladi hamda yangi ish o'rinlarni yaratishga olib keladi;
- mamlakat aholisini tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi natijasida davlatning ijtimoiy nafaqalarga ajratilgan xarajatlari miqdori qisqaradi;

Date: 15th June-2026

- tadbirkorlar tomonidan mahalliy mahsulotlar ishlab chiqarilishi natijasida ichki bozorni to'yinishiga va importga qaramlik holatini pasayishiga hamda iqtisodiy suverenitet darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Yashil iqtisodiy sharoitida iqtisodiyning raqamlashishi mamlakatlarni global raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omilga aylandi. Biroq, an'anaviy iqtisodiy tizimlardan raqamli iqtisodiy tizimlarga o'tish o'zi bilan birga yangi xavf-xatarlarni olib kelmoqda. Iqtisodiy xavfsizlik deganda hozirda faqat resurs bazasini himoya qilish emas, balki ma'lumotlar yaxlitligi hamda kiberbarqarorlikni ta'minlashni ham anglatadi.

Bozor iqtisodiy sharoitida ayniqsa kichik biznesda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash natijasida raqamli platformalarni yuzaga kelishi natijasida ishlab chiqarish va moliyaviy barqarorlik, axborot yaxlitligi va raqamli suverenitet ham shakllanmoqda.

Yashil iqtisodiy sharoitida global iqtisodiy xavfsizlikka tahdid soluvchi omillarga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- raqamli dunyo (kibermakon) va real dunyo (fizik makon) o'rtasidagi chegaraning yo'qolishi natijasida iqtisodiy infratuzilmaning zaiflashishi yuzaga kelmoqda;
- raqamli iqtisodiyda kiberhujumlar soni shu qadar ko'pki, ularni qo'lga boshqarish imkoni cheklangan;
- raqamli iqtisodiy sharoitida texnologiyalar tez o'zgargani sababli qonunchilik va xavfsizlik choralari tez eskirib qolmoqda;
- raqamli infratuzilmaning 85% dan ortig'i xususiy sektor (Microsoft, Google, Amazon) ga to'g'ri kelmoqda, bu esa ularni nazorat qilish imkonini cheklamoqda;
- raqamli iqtisodiyda "ma'lumot" eng qimmatbaho aktivga aylanib, bu davlat suverenitetini va har bir fuqaroning iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishni talab etmoqda;
- raqamli iqtisodiyda iqtisodiy xavfsizlik faqat "texnik to'siq" emas, balki ilmiy asoslangan iqtisodiy tizim sifatida to'liq e'tirof etilmasligi yuzaga kelmoqda.

Yashil iqtisodiy sharoitida kichik biznes iqtisodiy o'sishning asosiy omili hisoblanadi. Biroq, resurslarning cheklanganligi va tashqi kon'yunkturaga bog'liqlik darajasining yuqoriligi ushbu sektorni iqtisodiy xavf-xatarlarga nisbatan zaif qilib qo'yadi. Iqtisodiy xavfsizlik esa bu korxonaning ichki va tashqi tahdidlardan himoyalanganlik holati bo'lib, u resurs va imkoniyatlardan foydalanish orqali barqaror rivojlanishni ta'minlaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda kichik biznesni kreditlash orqali aholi bandligi va ularni iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda quyidagi yo'nalishlarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir:

- daromad manbalarini xilma-xillashtirish va majburiy zaxira jamg'armasini (sof foydaning kamida 15 foizi) shakllantirish;
- korxona faoliyatining qonunchilikka va etika normalariga mosligini tekshiruvchi ichki tizimni yo'lga qo'yish natijasida korrupsiya va huquqiy xavflarni minimallashtirish;
- savdo belgilari va nou-xaularni patentlash orqali bozordagi o'rinni mustahkamlash;



Date: 15th June-2026

- kadrlar monitoringini amalga oshirish va ichki firibgarlik holatlariga qarshi profilaktik choralar ko'rish va boshqalar.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Joseph Stiglitz "Economics of the Public Sector" 2000 yil. 320-355 betlar.
2. Muhammad Yunus "Banker to the Poor: Micro-Lending and the Battle Against World Poverty" 2003 yil. 150-185-betlar.
3. В.К.Сенчагов "Экономическая безопасность России. Общий курс". 2005 yil. 412-430 betlar.
4. Т.Э.Сultonov "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni kreditlash mexanizmlarini takomillashtirish" (Monografiya). 2018 yil. 85-112 betlar.
5. A.V.Vahobov "Iqtisodiy xavfsizlik" (Darslik). 2021 yil. 145-160 betlar.

